

**KURASHNING TARIXI, ISTIQBOLLARI VA MUTAXASISLARNI
TAYYORLASH KONTSEPSIYASI***Xomudjonova Feruza Komiljon qizi**Jismoniy madaniyat kafedra mudiri dotsent**Botirov Jasur Shuhrat ògli*

Annotatsiya: Asrlar mobaynida rivojlanib kelayotgan milliy kurashimiz tarixi va hozirgi , kelajakdagi gullab -yashnashi bilan birga istiqbollari , shu soha bòyicha mutaxasislarni tayyorlab borish konseptual rejalar haqida bugungi mavzuda tanishib chiqamiz.

Kalit sòzlar: Milliy kurashimizning kòhna tarixi , yoshlar muvaffaqiyatlari - kurashning istiqbollari , mutaxasislarni tayyorlab borish bòyicha bir yillik va kòp yilliklik mashgʻulotlar.

Xalqaro kurash assotsiatsiyasi (IKA)ning 2003-yil Toshkentda oʻtgan kongressi har bir uchrashuvning qizgʻin boʻlishini taʼminlash maqsadida rasmiy musobaqalarda bellashuv vaqtini 3 daqiqa qilib belgiladi. Ishlatilgan usullarga bajarilishiga mos ravishda „chala“, „yonbosh“, „halol“ baholari, qoidaga zid harakatlarga esa „tanbeh“, „dakki“, „gʻirrom“ jazolari beriladi. Kurashuvchi „halol“ bahosini olsa (yoki raqibi „gʻirrom“ bilan jazolansa) bu uning gʻalabasini bildiradi. Ikki bor „yonbosh“ bahosini olish (yoki raqibining ikki bor „dakki“ deya jazolanishi) ham gʻalabani anglatadi. „Chala“ baholari hisobga olib boriladi va h. k. Ballar tengligida oxirgi baho olgan kurash-chiga gʻalaba beriladi, kurashchilarning baho va jazolari soni teng holatda baho ustunlikka ega boʻladi, jazolar soni teng boʻlsa oxirgi jazo olgan magʻlub hisoblanadi, agar barchasi teng (yoki baho va jazo olinmagan) boʻlsa, gʻolib hakamlarning koʻpchilik ovozigina koʻra eʼlon qilinadi. 1992-yilda Oʻzbekistonda kurash federatsiyasi, 2001-yilda Oʻzbekistonda belbogʻli kurash federatsiyasi tuzildi. 1998-yil sentabrda Toshkentda 28 davlat (AQSH, Boliviya, Buyuk Britaniya, Gollandiya, Rossiya, Oʻzbekiston, Yaponiya va h.k.) vakillari Xalqaro kurash assotsiatsiyasi (IKA) muassislari boʻlishdi va shu munosabat bilan bu yerda oʻzbekcha kurash boʻyicha yirik xalqaro musobaqa oʻtkazildi. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining „Xalqaro kurash assotsiatsiyasini qoʻllab-quvvatlash toʻgʻrisida“gi farmoni (1999-yil 1-fevral) oʻzbek milliy kurash ining yavada rivojlanishiga turtki boʻldi. Oʻsha yili Toshkentda oʻzbekcha kurash boʻyicha birinchi jahon chempionati, Rossiyaning Bryansk shahrida ayollar oʻrtasida xalqaro musobaqa boʻlib oʻtdi. IKA qoshida Xalqaro kurash akademiyasi, Butun jahon kurashni rivojlantirish jamgʻarmasi tuzildi, assotsiatsiya muassisligida „Kurash“ jurnal taʼsis qilindi. Adabiy-badiiy, ijtimoiy-publitsistik, axborot-reklama yoʻnalishidagi bu jurnal Toshkentda 1999-yil oktabr oyidan buyon

nashr etiladi. Seminar davomida milliy qadriyatlarimizning bir bo'g'ini bo'lgan kurashni rivojlantirishga qo'shayotgan hissasi uchun Xalqaro kurash instituti faxriy rektori B.Valiev, institut mutaxassislari B.Abduvaliev va B.Abdulaev Turizm va sport vazirligi tomonidan "Jismoniy tarbiya va sport a'lochisi" ko'krak nishoni bilan taqdirlandi. Aytish lozimki, o'tgan davr mobaynida milliy sportimiz targ'ibotini kuchaytirish maqsadida Xalqaro kurash instituti tomonidan 80 dan ziyod o'quv kurslari, mashg'ulotlar, hakamlik seminarlari va ko'rgazmali chiqishlar tashkil etildi. Joriy yil davomida ham 6 ta onlayn va 4 ta oflayn o'quv seminarlarini tashkil etish rejalashtirilgan, deyiladi Turizm va sport vazirligi matbuot xizmati xabarida. Unda qit'aning Eron, Afg'oniston, Quvayt, Iroq, Livan, Iordaniya, Tojikiston, Turkmaniston, Qirg'iziston.

Milliy kurashimizning tarxiga to'xtaladigan bòlsak uning tarixiga XVIII asr oxiri -XIX asr boshlariga borib taqaladi. U faqatgina O'рта Osiyo davlatlaridagina aloqador emas aksincha, yevropa davlatlarida ham o'zining nomi va qonun-qoidalariga ega dir. Kurashimizni yevropa davlatlarida sambo yoki qadimgi nomi esa yunon-rim kurashi nomlari bilan mashhur. Qadimda ota-bobolarimiz har qanday ommaviy bayramlarini kurash musobaqalarisiz tasavvur qila olishmagan, ayniqsa, Navròz bayramlarida juda ham kuchli tayyorgarlik kòrilgan. Hattoki, yoshlari ulug' otaxonlarimiz ham musobaqalarda ishtirok etishgan va Navròz bayramini ular ochib berishardi. Xotin-qizlar esa ushbu musobaqalarda tomoshabin sifatida qatnashishlari mutlaqo ta'qiqlangan. Mustaqillikdan sòng, kurash sport turi bòyicha turli xil qonunlar chiqarildi va Xalqaro kurash assosiatsiyasi tashkil etilishning sababi esa O'рта Osiyo yosh sportchilarini dunyo kurashchilari bilan bellashtirish, O'zbekiston bayroğini jahon tan olishlari uchun bòlgan sa'yi harakatlardir barchasi. Keling endi mutaxasislarni tayyorlash konspektsiyalari haqida sòz yuritsak. Kurash sport turi bòyicha mutaxasislarni tayyorlash ham ma'lum bir qiyinchilklarga sabab bòlib, yetarlicha vaqt talab etiladi. Mutaxasislarni tayyorlashda munosib va samarador dars rejalari tuzilib chiqiladi va uni kurashchilar darslari amaliyotga tatbiq etiladi. Buning uchun avvalo, kurashchilarning yoshlariga kòra bir yillik yoki kòp yillik o'quv-treninovik dars rejalari tuzilib olinadi. Hali o'spirin yoshiga yetmagan yosh sportchilar uchun bir yillik o'quv-dasturlari munosib, chunki, ular zerikib qolish ehtimoli juda ham yuqoridir. Shubhasiz, o'spirin yoshdagilar uchun esa kòp yillik o'quv dasturlari ularga munosib bòlib, barcha darslar tartib bilan quyilib, ular uchun eng foydalilari tanlab olinadi. Sportchilarning yosh toifalariga o'quv-dasturiy rejalari tanlanadi, masalan, yosh o'spirin yoshiga yetmagan yosh kurashchilar uchun bir yillik o'quv-dasturiy rejalari maqsadga muvofiqdir. Chunki, ular tezda zerikib qolishga moyildirlar. O'spirin yoshidagi kurashchilar uchun esa kòp yillik dasturlar munosib hisoblanadi. O'spirin yoshi yosh kurashchilarimiz uchun juda ham xavfli davr hisoblanib, ular turli xil bòlmağur mashg'ulotlarga ham qiziqib uyğonib, chalğib qolishlari hech gap emas.

Shuning uchun murabbiylar ushbu davrda extiyotkor bòlib , yosh kurashchilarni nazorat ostiga olishlari juda ham muhim ahamiyatga ega. Malakali mutaxasislarni tayyorlash uchun barcha òquv-dasturiy mashgʻulotlarga amal borishlari , amaliy darslar ham òz vaqtida tengdoshlari bilan birga uyushtirilib borishlariga alohida e'tibor berishlari zarur. Xulosa òrnida shuni aytishimiz joizki , kurashchilardan yetuk mutaxasislarni yetishtirib chiqish uchun doimo , òquv-trenirovnik darslarga ahamiyat qaratilib , amaliy darslar ham doimo òz vaqtida olib borilishi juda ham zarurdir. Kurashning kòhna tarixini hurmat qilgan holda yoshlarga kurash haqidagi nazariy bilimlarni ham.òz vaqtida yetkazilib borilishi katta ahamiyatga egadir. Yoshlar ham ulkan muvaffaqiyatlarga erishish uchun murabbiylarining va ustozlarining har bir darslarini diqqat va e'tibor kuzatib borib , ularni amaliyotga ham qòllab turishlari ham juda muhimdir.Ahamiyatlisi, kurash bo'yicha xalqaro talablarga javob beradigan mutaxassislarni tayyorlash va malakasini oshirish orqali milliy sportimizni yanada keng ommalashtirishga qaratilgan mazkur seminarda murabbiylarga Xalqaro kurash instituti va Xalqaro kurash assotsiatsiyasi ekspertlari tomonidan kurash usullari asosidagi qoidalar ham amaliy, ham nazariy tarzda ko'rsatib utilishi bilan bir barobarda doimo yosh sportchilarni qòllab -quvvatlab turish zaruriy ahamiyatga ega . Ularni yanada rağbatlantirish uchun turli xil qimmatbaho sovrinlar bilan rağbatlantirish maqsadga muvofiqdir , albatta. Kumush medallar òrniga oltin medallarni kòpaytirish deb òylayman.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bolalar va òsmirlar sporti mashgʻulotlari nazariyasi va uslubiyati . Òquv qòllanma --Toshkent , 2019.
2. I. P. Matveyev , A. D.Novikov " Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi " , 2015
3. " Trenerlik metodikasi va mutaxasislarni tayyorlash konsepsiyasi " fanidan namunali òquv qòllanma -Toshkent , 2011